



**ALISHER NAVOIY ASARLARIGA TUZILGAN AYRIM LUG'ATLAR
IZOHI**

Sog'inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek lug'atshunosligi tarixining XV–XIX asrlarga oid bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, bu davrda yaratilgan “Badoyi‘ ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Navoi asarlari lug‘ati”, “Kelurnoma”, “Sangloh” va “Muntakhab al-lug‘at” kabi muhim asarlarning tuzilishi, leksik tarkibi, so‘zlarni joylashtirish tamoyillari hamda mazmuniy xususiyatlari o‘rganiladi. Ushbu lug‘atlar Alisher Navoiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblarning asarlari asosida yaratilgan bo‘lib, ular o‘z davri o‘zbek leksikografiyasining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Maqolada shuningdek, Mirzo Mehdixon, Muhammad Ya‘qub Chingiy, Nazar Ali Sayyid va Muhammad Rizo Xoksor singari allomalarning ilmiy merosi tahliliy yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek lug‘atshunosligi, Alisher Navoiy, “Badoyi‘ ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Kelurnoma”, “Sangloh”, “Muntakhab al-lug‘at”, Nazar Ali Sayyid, Muhammad Ya‘qub Chingiy, Mirzo Mehdixon, Muhammad Rizo Xoksor, tarixiy lug‘atlar, leksikografiya.

**EXPLANATION OF SOME DICTIONARIES COMPILED ON THE
WORKS OF ALISHER NAVOI**

Sog'inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

Annotation: This article analyzes the stages of development of Uzbek lexicography during the 15th–19th centuries. In particular, it examines the structure, lexical composition, organization principles, and semantic features of significant works such as “Badoyi‘ ul-lug‘at,” “Abushqa,” “Dictionary of Navoi’s Works,” “Kelurnoma,” “Sangloh,” and “Muntakhab al-lug‘at.” These dictionaries were compiled based on the literary heritage of such prominent figures as Alisher Navoi, Lutfiy, Husayn Bayqaro, and Zahiriddin Muhammad Babur, and they played an important role in the formation and advancement of Uzbek lexicography of their time. The article also provides an analytical overview of the scholarly contributions of Mirzo Mehdikhon, Muhammad Yaqub Chingiy, Nazar Ali Sayyid, and Muhammad Rizo Khoksor.



Keywords: Uzbek lexicography, Alisher Navoi, Badoyi‘ ul-lug‘at, Abushqa, Kelurnoma, Sangloh, Muntakhab al-lug‘at, Nazar Ali Sayyid, Muhammad Yaqub Chingiy, Mirzo Mehdikhon, Muhammad Rizo Khoksor, historical dictionaries, lexicography.

XV-XIX asrlarda yaratilgan lug‘atlarning aksar qismi Navoiy va atoqli shoirlar asarlariga asoslangan. Husayn Boyqaroning topshirig‘i bilan 1500-yilda Toli Hiraviy tomonidan tuzilgan “Badoyi‘ ul-lug‘at” asari Navoiy asarlari asosidagi ilk lug‘at hisoblanadi. XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug‘atida 2000 ta so‘z bo‘lib, muallif asosiy lug‘aviy birliklarni ajratib olmay, har xil grammatik shakllardagi so‘zlarni alfavit tartibida berib boradi. Alfavit tartibi faqat boshlang‘ich ikki tovushga tegishli xolos. Harfiga ko‘ra birlashtirilgan so‘zlar “bob”larga ajratiladi. “Bob”lar esa birinchi bo‘g‘indagi undoshga qanday unli qo‘shilib kelishiga ko‘ra uch qismga bo‘lingan¹. So‘zlarning lug‘atda bunday joylashtirilishi “Lug‘ati atrokiya”da ham uchraydi. Asarning qimmatli tomoni shundaki, chig‘atoycha-turkcha deb atalgan bu lug‘atda umunga tushunarli bo‘lmagan so‘zlarning ko‘chma ma‘nolari va ma‘no ottenkalari izohlanadi. Shuning uchun u ba‘zi so‘zlar semantikasini o‘rganishda ishonchli material bera oladi².

Nazar Ali Sayyidning “Navoiy asarlari lug‘ati” yaqinda topilgan bo‘lib, lug‘at Navoiy, Lutfiy, Mir Haydar asarlarida uchrovchi turkiycha so‘zlarning fors-tojikchaga tarjimasi ko‘rinishida. Muqaddimada o‘zbek tilida so‘z yasalishi, shuningdek, lug‘atning avvalida shakldoshlik va ko‘p ma‘nolilik hodisalarining o‘zbek tilidagi o‘rni borasida qimmatli fikrlar bildirilgan, misollar keltirilgan. Lug‘at ideologik lug‘at xarakteriga ega bo‘lib, ikkinchi faslda qarindoshlik terminlari izohlangan: og‘a – birodari buzrug, ini – birodari ko‘chak, egachi – xohari buzrug, singil – xohari ko‘chak, yotlig‘ – duxtar, bo‘ta – farzand. Undan so‘ng tana a‘zolari keltirilgan: engak – zanaxdon, ko‘ksuk – siyna, manglay – peshona, tiz – zonu, ern – lab, tish – dandon³.

XVII asrda yozilgan Muhammad Ya‘qub Chingiyning «Kelurnoma» asari ham tarjima lug‘at (o‘zbekcha-tojikcha) xarakteriga ega. Asar 15 bobdan iborat bo‘lib, bir necha fasllarga bo‘lingan. Dastlabki o‘n to‘rt bobda 400 dan ortiq fe‘lning turli xil shakllar paradigmasi alfavit tartibi bilan beriladi. Natijada uya lug‘atning namunasi

¹ Хасанов Б. Принципы отбора и расположения слов в рукописных словарях к произведениям Навои// Адабий мерос, 3(49), 1989. – 35-бет.

² Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 110-бет.

³ Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон. – 94-бет.

vujudga keladi⁴. Eng so‘nggi 15-bob esa mavzuiy (ideografik) lug‘at bo‘lib, so‘zlar 9 mavzuiy guruhga ajratib beriladi. Har bir faslida ma‘lum mavzuga oid jami 1300 ta so‘z berilgan: “osmon”, “yer”, “qushlar”, “ot va egarlanadigan hayvonlar”, “odam jismi a‘zolari” kabi. Inson organizmiga oid faslida so‘zlar quyidagi tartibda beriladi: bash – sar, miya – mag‘iz, sach – mo‘y, qash – abro‘, manglay – peshona, ko‘z – chashm, quloq – go‘sh t kabi⁵. Muallif lug‘atni tuzishda Hindistonning turkiy tilli aholisining jonli tilidan keng foydalangan⁶.

MirzoaMehdixon “Sangloh” nomi bilan mashhur bo‘lgan lug‘atini XVIII asrning o‘rtalarida (1760-yilda) yaratdi. Eski o‘zbek tilidagi 8000 so‘zni o‘z ichiga olgan bu ulkan asar ikki qismdan iborat: 1. Grammatik qism; 2. Lug‘at.

Asarning grammatika qismi “Maboni ul-lug‘at” deb ataladi. Mirza Mehdixonning bu grammatik ocherki eski o‘zbek tilining o‘tmishda yaratilgan eng mukammal tasviri hisoblanadi. Ocherkda dastlab turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Grammatik ocherk olti bo‘limdan iborat. Har qaysi bo‘lim eski o‘zbek tili grammatik tuzilishining biror tomonini yoritadi. Mirza Mexdixon asarining lug‘at qismi “Sangloh” deb nomlangan. Forscha sang so‘zi “tosh ” degan ma‘noni ifodalaydi. Sangloh (toshli er) majoziy ifoda bo‘lib, forslar uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan turkiy (eski o‘zbek tiliga oid) so‘zlar toshloq, toshli yerga o‘xshatilgan. “Sangloh”da Alisher Navoiyning yigirmadan ortiq asarlaridan, shuningdek, Lutfiy, Bobur, Husayn Mirzo, Ali Usmon, Sa‘diddin Safoyi Rumiy kabi adiblarning asarlaridan misollar ham keltirilgan⁷. Lug‘at yigirma to‘rt bobdan iborat. Ba‘zi boblarda atigi to‘rt beshda so‘z berilgan bo‘lsa, ba‘zi boblarda mingdan ortiq (hatto ikki minggacha) so‘z berilgan. Lug‘atda, so‘zlar bilan bir qatorda, ko‘plab turg‘un birikmalar, frazeologik ibora va sostavli atamalar ham izohlangan. Grammatik ocherk qismida grammatik shakllar parallel ravishda turk(usmonli turk) va ozarbayjon tillaridagi shakllarga qiyoslab boriladi, talaffuzi ham keltiriladi. Bunda Fuzuliyning asarlariga ko‘p murojaat qilinadi. Bundan tashqari “Sangloh”da qiyoslash maqsadida bir qancha til va dialektlar keltiriladi: “ahli Turon va Xorazm”, “ba‘zi ahaliyi Turon”, “atroki Turon”, “O‘zbeki, yoyi Turon va Xorazm”, “O‘zbakiya”, “Samarqandicha” kabilar⁸. A.A.Samoylovich asarning ilmiy qiymatini to‘g‘ri baholagan holda shunday

⁴ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 105 бет.

⁵ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 111-бет.

⁶ Мухаммад Якуб Чинги. Келурнома. – Ташкент: Фан, 1982. – С.11.

⁷ Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (Э. Фозилов раҳбарлигида) 4 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – 13-бет.

⁸ Хасанов Б. Сравнительный аспект в словарях к произведениям Навои // Адабий мерос, 2(52), 1990. – 26-бет.



degan edi: “Mirza Mehdixonning turkolog sifatidagi qimmatini shundan iboratki, u chigʻatoy adabiy tilini oʻrganish jarayonida adabiy yodgorliklar bilan birga, bir tomondan, anatoliya, ozarbayjon turklarining, ikkinchi tomondan, Oʻrta Osiyo jonli dialektlarini qiyoslashga tortdi”⁹. Shu jihatlari bilan u nafaqat eski oʻzbek-fors tillari lugʻatlarining eng yaxshi anʼanalarini oʻrgandi, shu bilan birga uni ijodiy ravishda rivojlantirdi¹⁰. Mirza Mehdixonning asari eski oʻzbek tili grammatikasi va leksikasi boʻyicha noyob manba sifatida bir qancha ilmiy tadqiqotlarning obyekti boʻldi¹¹.

Xorazmda yashab ijod etgan shoir va filolog Muhammad Rizo Xoksor “Muntaxab-al-lugʻat” (“Saylanma lugʻat”) asarini 1798-1799-yillarda yaratdi. Asar izohli lugʻatlar sirasiga kiradi. Unda eski oʻzbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha, forsha va ayrim eskirgan oʻzbekcha soʻzlarning maʼnolari eski oʻzbek tilida (baʼzan fors-tojik tilida) tavsiflanadi, soʻng illyustrativ misol sifatida Navoiy, Jomiy yoki Fuzuliy baytlaridan keltiriladi¹².

Asarning kirish qismida muallifning lugʻatshunoslikka doir ilmiy kuzatishlari berilgan. Xoksor oʻsha davrda mavjud boʻlgan lugʻat va filologik taraqqiyotlar toʻgʻrisida maʼlumot berar ekan, bu asarlarda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni, ayrim soʻzlarning ularda notoʻgʻri izohlanganini koʻrsatib oʻtadi. Lugʻat ikki qismdan iborat. Birinchi qismda eski oʻzbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha soʻzlar, ikkinchi qismda esa forsha-tojikcha va eskirgan oʻzbekcha soʻzlar izohlanadi. “Muntaxab-al-lugʻat”da hammasi boʻlib 2400 soʻz berilgan¹³. Xoksor lugʻatining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, unda soʻzlarning bosh (asosiy) maʼnosi bilan bir qatorda, koʻchma (hosila) maʼnolariga ham izoh beriladi. Lugʻatda soʻzlar arab alifbosi boʻyicha 28 bobga taqsimlanadi. Boblarda soʻzlar arab lugʻatshunosligi anʼanalariga rioya qilib, oxirgi tovushga (harfga) qarab guruhlanadi.

XV–XIX asrlar oʻzbek lugʻatshunosligi taraqqiyoti uchun muhim davr boʻlib, bu yillarda yaratilgan lugʻatlar nafaqat soʻz boyligini toʻplash, balki oʻz davrining ilmiy-lisoniy tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan. Toli Hiraviy, Muhammad Yaʼqub Chingiy, Mirzo Mehdixon, Nazar Ali Sayyid va Muhammad Rizo Xoksor singari

⁹ Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в. Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927, № 5. – С.8.

¹⁰ Умаров Э. Типы толкования в староузбекских словарях // Адабий мерос, 2(52), 1990. – 39-бет.

¹¹ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабаниул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.

¹² Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991. – 62-бет.

¹³ Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (Э. Фозилов раҳбарлигида) 4 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – 15-бет.



allomalar tomonidan yaratilgan lugʻatlar eski oʻzbek tili (chigʻatoy tili)ning fonetik, grammatik va semantik tizimini ilmiy asosda tasvirlab bergan. Ushbu asarlar oʻzbek leksikografiyasining kelgusi rivoji uchun asos boʻlib, hozirgi davrda ham tarixiy tilshunoslik, leksikologiya va madaniy merosni tadqiq etishda bebaho manba vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
2. Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009.
3. Мухаммад Якуб Чинги. Келурнома. – Ташкент: Фан, 1982.
4. Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927.
5. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.
6. Мухиддинова К. «Санглах» Мирзы Мухаммеда Мехдихана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1971.
7. Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.
8. Ҳусанов Н. Бир ноёб луғат ва унинг муаллифи // Фан ва турмуш, 1982.
9. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008.
10. Хасанов Б. Рукописные словари к произведениям Навои. Луғат-и атракийя. - Адабий мерос, 1 (55), 1991.
11. Шорахмедова Н. Словарь “Хамса ба халли луғат” // Адабий мерос, 2(44), 1988.
12. Вандриес Ж. Язык. – М., 1937.
13. Фозилов Э. ва бошқ. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т., 1983-1985.
14. Исҳоқхон Тўра Ибрat. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005.
15. Раҳимов А. Жадидларнинг ўзбек тилшунослиги ривожигаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013.